TALIM TIZIMINI ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Abdujabbarova M., Isomiddinova L.,
GDPItalabalariabdujabbarovamavluda295@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Jahonning yetakchi davlatlari tajribasi o‘rganilib, ularning ta’lim sohasidagi yutuqlari va muvaffaqiyatli amaliyotlari tahlil qilinadi. Maqolada ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning malakasini rivojlantirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, ta’limga

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi yo‘nalishlarda xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada ta’lim tizimini takomillashtirishda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni hal etish yo‘llari ham o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Ta'lim, ta'lim tizimi, xorijiy tajriba, ilg‘or tajriba, takomillashtirish, modernizatsiya, ta'lim sifati, o‘qituvchilar, o‘quv dasturlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, globalizatsiya, ta'lim islohotlari.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы образования на основе передового зарубежного опыта. Изучен опыт ведущих стран мира, проанализированы их достижения и успешные практики в сфере образования. В статье рассматриваются возможности применения зарубежного опыта в Узбекистане в таких областях, как повышение качества образования, повышение квалификации педагогических кадров, модернизация учебных программ, внедрение информационно-коммуникационных технологий в образование. В статье также рассматриваются проблемы, которые могут возникнуть при совершенствовании системы образования, и пути их решения.

Ключевые слова: Образование, система образования, зарубежный опыт, передовой опыт, совершенствование, модернизация, качество образования, преподаватели, учебные программы, информационно-коммуникационные технологии, глобализация, образовательные реформы.

Abstract: The article considers the issues of improving the education system based on

O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha koplab islohotlar olib borilmoqda.O‘zbekiston ta’lim tizimi birdaniga rivojlanib qolmagan. Turli davrlarda turlicha yondashuvlar asosida yaratilgan.Qadimgi Xorazm,Baqtrya Sog‘d davlatlarida ta’lim tizimi Avesto asosida shakllantirilgan bo‘lsa, VIIasrdan boshlab Islom svilizatsiyasi, Qur’oni Karim hadislar asosida ta’lim tizimi yo‘lga qoyilgan. Bunda IX-XII asrlarda yanada yuksak darajaga chiqdi va koplab O‘rta Osiyolik balki butun islom olamida ko‘plab olim-u fuzalolar dunyoga tanildi. Temuriylar davrida ham ta’lim tizmi yanada isloh qilingan.Xonliklar davriga kelib esa aniq fanlarga rag‘batlar pasaydi.Maktablar va madrasalar qo‘pol qilib aytganda maktabdor va muddarislarning pul manbai edi xolos. Sho‘ro va Sovet hukumati davriga kelib ta’lim tizimi isloh qilingan bo‘lsada bunda ruslashtirish siyosati va milliy qadriyatlaar singdirilmadan Sovet mafkurasi yog‘rilgan ta’lim tizimi yo‘lga qoyildi.

Hozirgi mustaqillik yillatimizgacha ta’lim tizmimiz ana shunday yo‘llarni bosib o‘tdi. Mustaqillikning ilk yillarida talim tizimini milliy mafkura milliy an’analar va zamonaviy g‘oyalar innovatsiyalar asosida takomillashtirish va vatanga sitqidildan hizmat qiluvchi fiidoiy kadrlarni tayyorlash bosh g‘oya bo‘ldi va bu boyicha koplab islohatlar jumladan quyidagi farmonlar va qarorlar qabul qilindi:

- 2020-yil 6-noyabrda imzolangan PF-6108-sonli Prezident farmoni asosida, 2021-yil 1-martga qadar Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqilishi belgilangan. Ushbu dastur ishlab chiqilishida malakali pedagoglar, ilmiy xodimlar, psixologlar va xorijiy ekspertlar, jumladan, Finlandiya mutaxassislari jalb qilinishi ko‘zda tutilgan. 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab, tayanch umumta'lim muassasalari Milliy o‘quv dasturini tajriba-sinov tariqasida ta'lim jarayoniga joriy etishadi;

-08.10.2019-yildagi PF-5847-sonli O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish va shu kabilar qabul qilingan.

XXI asr axborot texnologiyasi asri. Biz shu asrda yashamoqdamiz.Zamon bilan hamnafas bo‘lish va qator dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qo‘shilish barcha sohalarga shu jumladan ta’lim tizimiga ham ilg‘or xorijiy tajribalarni yo‘lga qoyish yangi texnologiyalar kiritish bosh vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish yosh avlodni ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bolib otdi. ‘‘Bilim berishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish tarbiyada esa milliy an’ana va qadriyatlarimizga suyanish muhim’’deb Prezidentimiz alohida takidlab o‘tdi. Ta’lim tizimiga ilg‘or xorijiy tajribalarni kiritishda ularning albatta milliy mentalitetimizga moslashtirishimiz ham muhim hisoblanadi.

Bu tajribalarni kiritishda ta’lim bazasini(jihozlar,kitoblar o‘quv qo‘llanmalar elektron qurilmalar va.hk) o‘quv binolarni zamon talabiga mos ravishda qayta rekonstruktsya qilishni ham talab etadi.O‘qituvchi murabbiy(tarbiyachi)larni malakalarini oshirib borish va zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki xorijiy tajribalarni kiritish va uni takomillashtirishda ta’lim tizimida sifatli darslarni tashkil etish talabga javob beruvchi kadrlarni tayyorlashda o‘z samarasini beradi. Va shuni takidlash joizki rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni ham yaxshi yo‘lga qo‘yish kadrlar almashish ham katta ahamiyatga ega.